

**OILAVIY MUNOSABATLARDA FARZAND TARBIYASIGA
HADISLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

*Mamaraimov Qo‘ziboy Vapayevich
Osiyo xalqaro universiteti magistri
Ilmiy rahbar: Axmadov Olimjon*

Sharq xalqlarida qadimdan farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelingan. Farzand tarbiyasiga chaqaloqning to‘g‘ilgan paytidan, balki undan ham oldinroq ahamiyat berish lozimligi haqida qator rivoyatlar va ibratli hikoyalar borki, ularning barchasida insonning kamoloti va kelajak poydevori yoshlikda olingan ta'limgarbiyaga bog‘likligi haqida so‘z yuritiladi.

Jadid adibimiz Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo halokat” deyishi - millat taqdiri farzandlarimiz qo‘lida ekanligiga ishora edi. Xalqimzda “Bir bolaga yetti mahalla ota-onasi” degan hikmatning ma’nosini ham tarbiyaning ahamiyatlilik va mas’uliyatlilik darjasini nechog‘lik yuqori ekanligini bildirib turadi.

Sir emaski, milliy madaniyatimizning o‘q ildizi Islomiy odob-axloq qoidalari bilan bog‘liq bo‘lib, unda Qur'on va hadis ta'limoti an'analaridan barakali foydalanilgandir. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning **“Ota-onasi o‘z bolasiga go‘zal odobdan afzal narsa bera olmaydi”** (*Ayyub ibn Muso roziyallohu anhudan, u kishi otasidan, u kishi bobosidan - Termiziy rivoyati*) deganlarida farzandning kelajakda jamiyat oldidagi mas’uliyatini bildirsa, ikkinchi tomondan otaning farzand oldidagi majburiyatini ham bildirib turadi. **“Kimki ota-onasining vafotidan keyin ham yaxshilik qilishni istassa, uning yaqin birodarlari bilan aloqani uzmasin”** hadisi tinch-totuvlik, hamjixatlik, totuvlik, mehr-muhabbatli bo‘lish g‘oyalarini ilgari suradi.

Shuningdek, milliy qadriyatlarimizning eng yuksagi bo‘lgan ota-onaga bo‘lgan e’tibor, mehr-oqibat borasida ham ko‘plab hadis namunalari mavjudki, ular farzandlarimiz uchun dasturulamal bo‘lmog‘i lozim. **“Kimki ota-onasining roziligini olgan bo‘lsa, unga qanday yaxshi. Alloh Taolo uning umrini uzaytiradi”**. Darhaqiqat, ota-onaga bo‘lgan hurmat, ularga bo‘lgan ehtirom ming yillik qadriyatlarimizdandir.

Shuni aytishimiz joizki, ota-onalar farzand tarbiyasi borasida fikr yuritar chog‘larida, o‘qituvchilarimiz dars o‘tish jarayonlarida hadis namunalaridan foydalanib ish yuritsalar albatta foydali bo‘lur edi.

Ta’lim-tarbiya haqida so‘z ketganda, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”, degan chuqur ma’noli fikri yodimizga tushaveradi. Buyuk ma’rifatparvar

bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtida ham shunchalik, balki undan ham ko‘proq dolzarb ahamiyatga ega.

Islomda farzand tarbiyasi qanday bo‘lishi kerak?

Qur’oni Karimdagagi oyatlardan biri madinalik sahabalar Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamga kelib, uylari uzoqlik qilayotgani bois, uylarini sotib, yaqinroq joyga ko‘chib kelishlari haqida shikoyat qilganlarida nozil bo‘lgan. Ya’ni uylarni sotishga hojat yo‘q, uzoqdan kelayotgan bo‘lsalar, har bir bosilgan qadamlariga savob beriladi, mazmunida.

«Biz ular keltirgan qadamlarni, bosgan qadamlarni ham yozamiz va ularning asarini ham yozamiz», – deya marhamat qilingan. Tafsirlarning birida bu oyatdagagi «ularning izi» degani – bu asarimiz, avlodlarimizdir, degan fikr bildirilgan.

Allohnинг bu oyatidan tushunamizki, Alloh nafaqat amalimizni, balki avlodlarimiz amalini ham o‘zimizga yozadi. Shuning uchun tarbiya vojib bo‘ladi.

Orqamizdan yaxshi tarbiyali farzand qoldiraylikki, ortimizdan faqat savob borsin, yomonlik bormasin.

Islomda tarbiya vojibdir

Tarbiya dinimizda vojib amal, deb e’lon qilingan. Biz eng ko‘p ishlataligani tarbiya, murabbiy so‘zlari Allohnинг «Rob» ismi bilan bitta o‘zakdan olingani tarbiyachilar mas’uliyatini oshirsa kerak, deb o‘ylayman.

Demak, bu yengil ish emas. Tarbiya – faqat ta’sir, tartib yoki nazorat, taftish emas, u ilohiy narsa. Tarbiya farzandni doim nazoratga olish, kuzatib borish degani, chunki Alloh taolo surai Fotihaning birinchi oyatida olamlarning robbisi Allohgа maqtovlar bo‘lsin, degan.

Bu oyatda Alloh Rob ismini keltirgan. «Robbil a’lamiyn» – butun olamlarning murabbiysi degani. Agar Alloh murabbiyligi, ya’ni nazorati, kuzatuvini lahza to‘xtatsa, olamlar izdan chiqib ketadi.

Farzand oq qog‘oz kabidir

Agar murabbiy yoki ota-onada farzandiga bir lahza e’tiborsiz bo‘lsa, farzandlar tarbiyasi buzilib ketadi. Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam marhamat qilganlarki, har bir tug‘iladigan bola fitratda tug‘iladi, ya’ni har bir chaqaloq pokiza bo‘ladi, u oq qog‘oz kabidir.

Bu hadisni muhaddislarimiz ota-onada bobida keltirmasdan taqdir bobida keltirganlari tarbiyaning taqdirga bog‘liqligini bildiradi. Tarbiyaga kech qolinmasa bo‘ldi.

Nasl-nasab 7 avlodgacha ta’sir qiladi

Tarbiya bolaning otasi, onasini tanlashdan boshlanadi, chunki Rasuli akram alayhissalom aytganlar: «Munosib kelin yoki kuyov tanlanglarki, irq o‘tuvchidir». Ya’ni ota-onaning fe’li bolaga o‘tadi, shuning uchun bola yaxshi tarbiyali bo‘lishi

uchun otasi tarbiyali bo‘lishi kerak. Onasi nasl-nasabli, pokiza, din-diyonatli bo‘lsa, otasi ham shunday bo‘lsa, albatta, bola nasl-nasabiga tortadi, undan qochib ketolmaydi.

Nasl-nasabning to 7 avlodgacha ta'siri bo‘ladi.

Qarindoshlar xalifaga shikoyat qilishdi

Hazrati Umar xutba qilganlarida: «Ey mo‘minlar, nasl-nasablaringizni surishtiringlar», dedilar. Payg‘ambar alayhissalom hadislarini keltirdilar, ular nasl-nasabni o‘rganishga buyurganlar.

Hazrati Umarning bu xutbalariga sabab bo‘lgan voqea shunday ediki, ikki kishi urishib qoladi va Umar ibn Xattobga shikoyat qilib kelishadi. Shunda Hazrati Umar ularni surishtirsa, ikkovlari aslida qarindosh chiqib qolishadi. Shunda aytganlar: «Nasl-nasablaringni surishtiringlar, mehr-muhabbati ziyoda bo‘ladi».

Agar ular haqiqatan ham qarindosh ekanliklarini bilganlarida edi, urishishmasdi, shikoyat qilishga borishmasdi. Shuning uchun dinimiz nikohga buyurdi, zinoni harom qildi. Bu naslni aniqlash, aralashib ketmasligi uchundir.

Hizr va Muso alayhimmussalomlar qissasi

Qur'oni karimda hazrati Hizr alayhissalom bilan Muso alayhissalom bir qishloqqa borganlarida qishloq ahli ularga joy, ovqat bermaydi, ammo ikkovlari shu yerdagi nurayotgan devorni tiklab qo‘yishadi.

Shunda hazrat Muso: «Qishloq ahli bizga yordam bermadi, siz nega eski devorni tiklab qo‘ydingiz?» deb so‘raganlarida, Hizr alayhissalom tushuntirib berganlar: «O‘scha devor qishloqdagi ikki yetim bolaning devori edi. Devorning tagida xazina bor edi, agar u yiqilsa, xazina ochilib qolardi, odamlar uni talab ketishadi va ularga hech narsa qolmaydi».

Allohning istagi esa, yetimlar katta bo‘lguncha devor yiqilmasligi, xazina ochilmasligi kerak. Shu yetim bolalarning otasi yaxshi odam bo‘lgani bois ikki aziz bandasi – avliyo va Payg‘ambarini Alloh hatto Qur’onda ismi ham keltirilmagan, noma'lum bo‘lgan ikki yetim bolaga tekin mardikor qilib qo‘ydi. Nima uchun desa, ularning otasi solih inson bo‘lgan.

Qarang, otaning yaxshiligi tufayli Alloh Payg‘ambarni ikki bolaga mardikor qilib qo‘ydi. Imom Ibni Kasirning tafsirlarida o‘scha ota qaysi ota deganda yettinchi otasini keltiradi va u solih inson bo‘lgandi.

Naslning e’tibori yetti naslda davom etishini psixogenetika fani ham tasdiqlaydi.

Oila qurishda nasl-nasab surishtiriladi

Nasl-nasab nima uchun doim surishtiriladi? Chunki farzand tarbiyasida nasl-nasab asosiy o‘rin tutadi. Munosib kelin va kuyov tanlanganidan keyin, ular farzandli bo‘lib, ota bolaga halol luqma yedirsa, u hech qachon noqobil bo‘lmaydi. Bu aniq shart.

Shunga binoan, oz bo‘lsa-da, qanoat qilib, homilador bo‘lgan onaga haloldan yedirsinlar. Homilador ona istagan narsasini ota olib kelishga harakat qiladi. Farzand tug‘ilganda shariat tayin qilgan masofalarda haqlar bor.

Farzand tug‘ilganda ota-onasining zimmasidagi vojib amallar

Farzand tug‘ilishi bilan ota-onasining zimmasiga vojib haqlar paydo bo‘ladi. Bolaga yaxshi ism berib, qulog‘iga azon aytishi kerak, sochini olib, sadaqa qilib, 7-14-kuni aqiba qilinsin, deyiladi.

Aqli kirganda ta’lim berish, voyaga yetganda uyli-joyli qilish – bular ma'lum masofadagi haqlardir. Nima uchun ma'lum masofalardagi haqlar? Ularning hammasi ota-onasining farzandini kuzatib turish uchun.

Ota-onasining keksayganida ham farzandini tarbiya yoki nazorat qila oladimi?

Ulamolar javob berishlaricha, ota-onasining farzandi uchun namozlarning ortida qiladigan duolari bilan nazorat qiladi. Ota-onasining yaxshi duosi bilan bolaning yomon taqdirlari yaxshi bo‘ladi. Ota-onasining yomon duosi bilan yaxshi taqdir yomon ham bo‘ladi.

Shuning uchun farzand ota-onasining eng yaxshi duosini olishga chaqiriladi.

Ota-onasining farzand uchun katta tijorat ekanligini aytib o‘tgan edik, ya’ni kasodga uchramaydigan tijorat. Bu narsani ota-onasi hayot bo‘lgan odamlar yaxshi tushunishadi.

Farzandining tarbiyasini matabga topshirgan ota-onalar

Shariyati Islom farzandga birinchi o‘rinda ota-onani javobgar qilib qo‘ygan. Ota-onasining zimmasiga tarbiyani vojib qilib yuklagan. O‘qituvchilar bola hayotining ma'lum qismida uning tarbiyasiga go‘yoki ota-onalar tomonidan yollangan murabbiylar hisoblanadilar. Ularni aybdor qilish hech mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi.

Abu Hanifaning bir o‘g‘li bor edi. Ustozlari Hammod bin Sharaf nomlariga atab o‘g‘liga Hammod deb ism qo‘ygandilar. Imom hazratlari katta savdogar bo‘lganlar. U juda band edi va farzandiga avvalgi Qur'oniy ta’limni berish uchun ustoz yolladilar. Iltimos qildilarki, o‘g‘limizga Qur'on o‘qishni o‘rgatib bering. Ustoz Hammodga surai Fotihani yodlatdi. Ustozni huzurida otasiga Hammod fotiha surasini chiroyli qilib tilovat qilib berdi.

Shunda Imom Hanifa cho‘ntaklaridagi 500 dinorni ustozning oldiga qo‘ydilar. 1 dinor tanga 5 gramm oltindan bo‘ladi. 500 dinor katta pul bo‘lgan. 1 dinorga o‘sha mahalda katta qo‘y berilgan. Bu degani Fotiha surasini o‘rgatgani uchun ustozga 500 ta qo‘y berildi.

Shunda ustoz biroz xijolat bo‘ldi. Hazratga juda ko‘p pul bergenligi, bitta dinor ham ko‘plik qilishini aytganida, Imom Hanifa bir gap aytди:

«Ustoz, xizmatingizni yengil sanamang. Bu hali yonimda bo‘lganidir. Agar yonimda butun molim bo‘lganida poyingizga qo‘ygan bo‘lardim. O‘g‘limga Fotihani, Qur'onning onasi bo‘lgan surani o‘rgatganingiz uchun».

Noqobil farzand uchun oxiratda ota-onasining javobgardir

Ota-onasining ustozlarning xizmatini yuksak sanashi kerak. Ustozlarni ayblash o‘z mas‘uliyatini boshqaga yuklash deganidir.

Shariatning vojib degan hukmini tushunishimiz kerak. Bu degani mazkur ish qilinmasa yoki buzib qilinsa, ota-onas gunohkor bo‘ladi. Farzandini noqobil o‘stirgan ota-onas albatta gunohkor bo‘ladi. Oxiratda Alloh noqobil farzandlar uchun javobgar qiladi.

Go‘zal tarbiyadan yaxshi meros yo‘q

To‘g‘ri, har bir ota-onas farzandiga faqat yaxshilikni ilinadi. Farzandi uchun ortiqcha orzu-havas qiladi va ikkalasi birga ishlaydi. Ota-onas farzandini tarbiya qilish kerak bo‘lgan paytda orzu-havas uchun tirikchilik qilishga majbur bo‘ladi, bola tarbiya oladigan yoshda to‘liq tarbiya ololmay qoladi.

Ammo, afsuski, ertaga orzu-havaslar o‘tmay qolishi bor. Aslida, orzu-havas chiroylar tarbiya bilan bo‘ladi.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning: «Ota farzandiga chiroylar tarbiyadan ko‘ra, yaxshi odob berishdan ko‘ra yaxshiroq narsa meros qoldirmagan», degan hadislari bor.

Muqaddas dinimizda farzand tarbiyasiga ota-onalar mas‘ul ekani, yana ham aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, oilani moddiy tarafdan ta‘minlash ota zimmasida bo‘lganidek, farzandlar ta’lim-tarbiyasi ham asosan otaning vazifasi ekani ko‘plab hadisi shariflarda ta’kidlangan.

Farzand tarbiyasi haqida juda ko‘p ma’lumotlarni keltirish mumkin. Biz ushbu mo‘jaz maqolada farzand tarbiyasiga kim mas‘ul ekaniga urg‘u berib, shu xususda ba‘zi mulohazalarni aytib o‘tishni lozim topdik.

Alloh taolo shunday degan: “Ey mo‘minlar, sizlar o‘zlariningizni va ahli-oilangizni do‘zaxdan saqlangizki, uning o‘tini odamlar va toshlardir. U (**do‘zax**)ning ustida qattiqdil va qattiqqo‘l, (**faqat**) o‘zlariga buyurilgan narsani qiladigan farishtalar turur” (*Tahrim, 6*).

Ushbu oyatda mo‘min kishi o‘zi va oila a‘zolarini Allohga itoa etish, U Zot qaytargan ishlardan tiyilishga chaqirish orqali jahannam azobidan qutqarishi lozimligi ta’kidlanmoqda.

Zayd ibn Arqam roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam “o‘zlariningizni va ahli-oilangizni do‘zaxdan saqlanglar!” oyatini tilovat qildilar. Shunda: “Ey Rasululloh, biz oilamizni do‘zaxdan qanday qilib saqlaymiz?” deyildi. Shunda u zot: “Ularni Alloh yaxshi ko‘radigan narsaga buyurasizlar, Alloh yomon ko‘radigan narsadan qaytarasizlar”, dedilar” (Ibn Mardavayh rivoyati).

Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu bu oyatni: “Oila a‘zolaringizga yaxshilikni ta’lim bering, ularga odobni o‘rgating!” deb tafsir qilgan (Hokim, Bayhaqiy va Ibn Jarir rivoyati).

Ibn Abbas roziyallohu anhu bu oyat haqida: “Allohga itoat etinglar, U Zotga osiy bo‘lishdan saqlaninglar, ahlingizni jahannam azobidan saqlovchi Allohning zikriga o‘rgatinglar!” degan (Ibn Jarir va Ibn Munzir rivoyati).

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ: كُلُّكُمْ رَاعٍ فَمَسْئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ فَالْأَمْيَرُ الَّذِي عَلَى النَّاسِ رَاعٍ وَهُوَ مَسْئُولٌ عَنْهُمْ وَالرَّجُلُ رَاعٍ عَلَى أَهْلِ بَيْتِهِ وَهُوَ مَسْئُولٌ عَنْهُمْ وَالْمَرْأَةُ رَاعِيَةٌ عَلَى بَيْتِ بَعْلَهَا وَوَلَدِهِ وَهِيَ مَسْئُولَةٌ عَنْهُمْ وَالْعَبْدُ رَاعٍ عَلَى مَالِ سَيِّدِهِ وَهُوَ مَسْئُولٌ عَنْهُ أَلَا فَكُلُّكُمْ رَاعٍ وَكُلُّكُمْ مَسْئُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ. رَوَاهُ الْبُخَارِيُّ وَمُسْلِمٌ وَأَبُو دَاوُدَ وَالْتَّرْمِذِيُّ وَأَحْمَدُ وَابْنُ حِبَّانَ.

Abdulloh (ibn Umar) roziyallohu anhudan rivoyat qilinishicha, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday deganlar: “Har biringiz rahbardirsiz. Har biringiz qo‘l ostingizdagilar haqida so‘ralasizlar. Odamlarga amir bo‘lgan odam rahbardir, ular haqida so‘raladi. Kishi o‘z oilasiga rahbardir, ular haqida so‘raladi. Xotin erining uyi va bolalariga rahbardir, ular haqida so‘raladi. Qul xojasi moliga rahbardir, o‘sha haqida so‘raladi. Ogoh bo‘linglar, har biringiz rahbarsizlar, qo‘l ostingizdagilar haqida so‘ralasizlar!” (*Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Ibn Moja, Ibn Hibbon rivoyat qilgan*).

Ushbu rivoyatda har bir banda, kim bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z qo‘l ostidagilarga rahbar ekani, ularning riyosi va himoyasi bo‘yicha mas’ul ekani, adolat bilan ish tutishi lozimligi ma’lum qilinmoqda.

Rivoyatda ayol erining uyini chiroylar tadbir bilan himoya qilishi, molini omonat bilan saqlashi va farzandlariga qarashda mas’ul ekaniga ham urg‘u berilmoqda. Bundan kelib chiqadi, farzand tarbiyasi faqat erkakning zimmasida emas, balki ayol bu borada eriga yaqindan ko‘maklashadi.

عَنْ أَنَسِ بْنِ مَالِكٍ يُحَدِّثُ عَنْ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ: أَكْرُمُوا أُولَادَكُمْ وَاحْسِنُوا أَدْبَهُمْ. رَوَاهُ أَبْنُ مَاجَةَ وَسَنَدُهُ ضَعِيفٌ.

Anas ibn Molik roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qiladi: “Sizlar farzandlaringizni hurmat qilinglar va ularning odobini go‘zal qilinglar!” (*Ibn Moja rivoyati. Rivoyat sanadi zaif*).

Ushbu hadisga ko‘ra, ota farzandlariga chiroylar muomalada bo‘lishi, ularni izzat-ikrom qilishi kerak. Ammo bunda me’yorni bilish lozim. Aks holda otaning tantiligi, yeb-ichish va libos bobida haddan tashqari xotamtoylar qilishi bolalar tarbiyasiga salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin. Shu sabab bo‘lsa kerak, hadisning davomida bolalar odobini chiroylar qilishga chaqirilmoqda.

Farzand tarbiyasiga asosan ota javobgar ekan, biz bu narsaga qanday qaramoqdamiz? Dinimiz bizga buyurgan vazifalarni to‘liq his qilib, o‘z zimmamizdagagi majburiyatlarni bajara olyapmizmi yoki bu ishlarda kamchilikka yo‘l qo‘yilmoqdamiz?

Shukrki, ko‘p otalar shariat ko‘rsatmalariga amal qilib, farzand tarbiyasiga o‘zlarini bosh-qosh bo‘lib turadilar. Buning natijasi o‘laroq farzandlari salohiyati va odobli bo‘lib voyaga yetadi. Ammo kishilar orasida bu vazifaga panja ortidan qarab, farzand tarbiyasini ayoli yoki mакtabdagi ustozlarga tashlab qo‘yadiganlar ham yo‘q emas. To‘g‘ri, oilada ona ham farzandlar tarbiyasiga ko‘mak beradi, ustozlar ham maktabda o‘z o‘quvchilariga ta’lim berish barobarida odob-axloqni o‘rgatadilar. Ammo baribir bolalar tarbiyasi uchun javobgar ota ekanini unumasligimiz kerak.

Sababi oxiratda aynan ota so‘raladi bu xususda.

Yana bir kamchiligimiz shuki, ba’zi oilalarda farzand tarbiyasi to‘lig‘icha televizor yoki telefon apparatlariga topshirib qo‘yilgan. Ularning farzandlarini o‘zлari emas, balki o‘sha texnik jihozlar “tarbiyalaydi”. Ammo unutmaslik kerak, televizor kun bo‘yi ma’naviy-ma’rifiy ko‘rsatuвлar bergani bilan bola tarbiyasida ota-onaning o‘rnini hech kim va hech narsa bosolmaydi! Vaholanki, “jim o‘tirsin”, deb bolalarini televizor ixtiyoriga to‘liq topshirib qo‘yayotgan ota-onalar zangori ekranda bolalar uchun umuman to‘g‘ri kelmaydigan narsalar berilishini yaxshi biladilar. Shuni bilib turib ham sof tabiatli farzandlarining odobi buzulishi, xulqi yomonlashishiga sababchi bo‘lib qoladilar...

Shunday ekan, mas’uliyatli vazifa bo‘lgan farzand tarbiyasiga panja ortidan qarab bo‘lmaydi. Bunga haqqimiz ham yo‘q. Sababi bu ikkinchi yoki uchinchi darajadagi ish emas. Balki naslimiz davomchisi bo‘lgan farzandlarimiz ta’lim-tarbiysi bizning asosiy vazifalarimizdan biridir. Bu vazifa bizga Alloh va Rasuli tarafidan yuklangan. Shuni yoddan chiqarmaslik lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Tarbiya va xulq” haqidagi fiklari
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Baxtiyor oila” kitobi “Hilol Nashr” Toshkent 2019
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Ruhiy tarbiya” kitobi “Hilol Nashr” Toshkent 2019
4. Luqmonxon Olimov “ Farzand tarbiyasi ulkan ma’suliyat” ma’ruzasi.
5. <http://xs.uz/uz/post/tarbiya-orqali-mamlakatimizda-uchinchi-ujgonish-koz-ochadi>